
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Kimlar referendumni o'tkazish to'g'risidagi tashabbusga ega?

Javob: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi referendumini to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga asosan, referendumni o'tkazish tashabbusi bilan:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining palatalari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan sub'ektlar referendum o'tkazish to'g'risidagi tashabbusni ko'rsatishda, referendumga qo'yiladigan qonun loyihasini yoki o'zga qaror loyihasini ishlab chiqishda, shuningdek masala ta'rifini (mohiyatining aniq ifodasini) belgilashda teng huquqlarga egadirlar.

F.Boboyev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-14 11:18:30